



ALISHER NAVOIY FALSAFIY DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA TEMURIYLAR DAVRI IJTIMOIIY-MADANIY MUHITINING O'RNI

Ochilova Maftuna Shuxratovna

PhD, Navoiy innovatsiyalar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21487329>

Annotatsiya. Mazkur tezisda Alisher Navoiy falsafiy dunyoqarashining shakllanishida Temuriylar davri ijtimoiy-madaniy muhitining tutgan o'rni tarixiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. XV asrda Movarounnahr va Xuroson hududlarida yuz bergan siyosiy, ilmiy va madaniy jarayonlarning mutafakkir shaxsiyati hamda falsafiy qarashlari rivojiga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijasida ilmiy-madaniy yuksalish, tasavvufiy ta'limot va davlat boshqaruvi tajribasi Alisher Navoiy tafakkurining shakllanishida muhim omillar ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Temuriylar davri, falsafiy dunyoqarash, ilmiy muhit, tasavvuf, ma'naviyat, madaniyat, Movarounnahr.

Kirish. Har bir buyuk mutafakkirning dunyoqarashi u yashagan davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy muhiti bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Alisher Navoiy ham bundan mustasno emas. Uning falsafiy qarashlarini anglash uchun XV asr Temuriylar davridagi ijtimoiy-madaniy muhitni chuqur o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Temuriylar hukmronligi davri Sharq Uyg'onishining ikkinchi bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda Hirot va Samarqand nafaqat siyosiy markaz, balki ilm-fan, adabiyot, san'at va falsafaning yirik o'choqlariga aylandi. Aynan shu muhit Alisher Navoiy shaxsiyati va tafakkurining kamol topishiga mustahkam zamin yaratdi. Bugungi kunda Navoiy merosi ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lsa-da, uning falsafiy dunyoqarashi shakllanishida ijtimoiy-madaniy omillarning o'zaro bog'liqligi hali ham dolzarb ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

Asosiy qism.

Temuriylar davri – ilmiy va madaniy yuksalish davri. XV asrda Amir Temur va temuriy hukmdorlar tomonidan ilm-fan va madaniyat rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Kutubxonalar, madrasalar, rasadxonalar va adabiy majlislarining faoliyati ilmiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qildi. Ayniqsa, Hirot shahri Sharqning eng yirik ilmiy markazlaridan biriga aylandi. Alisher Navoiy ana shunday muhitda voyaga yetdi. U yoshligidan ilm ahllari, shoirlar va mutafakkirlar davrasida tarbiya topdi. Bu holat uning dunyoqarashining kengayishiga, ilm va ma'rifatni inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin etishiga sabab bo'ldi.

Ilmiy muhit va ustozlar ta'siri: Alisher Navoiy dunyoqarashining shakllanish omillari. Alisher Navoiyning buyuk mutafakkir, shoir, davlat arbobi va faylasuf sifatida shakllanish jarayonida u yashagan davrning ilmiy-adabiy muhiti hamda unga ta'sir ko'rsatgan ustozlarning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etadi. XV asr ikkinchi yarmida Hirot shahri Temuriylar davrining yirik madaniy, ilmiy va ma'naviy markazlaridan biri bo'lib, unda turli fan sohalari vakillari — shoirlar, olimlar, tarixchilar, faylasuflar, xattotlar, musavvirlar va san'atkorlar faoliyat olib borganlar. Ana shunday yuksak intellektual muhit Navoiyning ilmiy tafakkuri, badiiy-estetik qarashlari va falsafiy dunyoqarashining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Alisher Navoiy shaxsiyatining kamol topishida eng muhim ma'naviy omillardan biri uning Abdurahmon Jomiy bilan bo'lgan ijodiy-ilmiy aloqalaridir. Abdurahmon Jomiy XV asr Sharq mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi, mutafakkir, faylasuf va tasavvuf olimi sifatida nafaqat fors-tojik adabiyotida, balki butun musulmon Sharqi ma'naviy hayotida katta mavqega ega bo'lgan. Navoiy Jomiyni o'zining ustozlaridan biri sifatida chuqur hurmat qilgan va uning ilmiy-ma'naviy tajribasidan keng foydalangan. Ularning munosabatlari oddiy ustoz-shogird aloqasi doirasidan chiqib, ikki buyuk mutafakkirning fikriy hamkorligi va ma'naviy yaqinligi darajasiga ko'tarilgan.



Jomiy Navoiyning adabiy mahorati, falsafiy qarashlari va tasavvufiy tafakkurining rivojlanishida muhim yo'nalish beruvchi shaxs bo'lgan. Xususan, inson mohiyati, axloqiy kamolot, adolat, ilmning qadri, ma'naviy poklanish kabi masalalarda Jomiyning qarashlari Navoiy ijodida ham o'z aksini topgan. Jomiy tasavvuf ta'limotining yirik vakili sifatida insonning ichki dunyosini takomillashtirish, nafsni tarbiyalash va komil inson darajasiga yetish g'oyalari ilgari surgan. Ushbu g'oyalar Navoiy asarlarining asosiy falsafiy yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida tasavvuf ahli va avliyolar hayoti haqida chuqur ma'lumot berishi ham uning Jomiy ta'sirida shakllangan ma'naviy qarashlari bilan bog'liqdir. Jomiy orqali Navoiy tasavvufning insonparvarlik mohiyatini chuqur anglab yetgan va uni o'zining badiiy-falsafiy merosida namoyon qilgan. Ayniqsa, insonni ulug'lash, ezgulik va adolatni qaror toptirish, ilm-ma'rifat orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish g'oyalari Navoiy ijodining yetakchi tamoyillaridan biriga aylangan. Shuningdek, Hirot ilmiy-adabiy muhiti Navoiyning ijodiy shakllanishida alohida o'rin tutgan. Temuriylar davrida Hirot shahri ilm-fan va madaniyatning rivojlangan markazi bo'lib, bu yerda ko'plab iste'dodli ijodkorlar va olimlar jamlangan edi. Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hirot tashkil topgan ilmiy-adabiy majlislar, saroy kutubxonalari va madaniy markazlar Navoiyning ijodiy faoliyati uchun keng imkoniyat yaratgan. Bu muhitda turli ilm sohalarining rivojlanishi Navoiyning dunyoqarashini kengaytirib, uni nafaqat shoir, balki ensiklopedik bilimga ega mutafakkir sifatida shakllantirdi. Hirot adabiy muhitida faoliyat yuritgan tarixchilar, olimlar va ijodkorlar bilan muloqot Navoiy tafakkurining rivojlanishida muhim omil bo'ldi. U tarix faniga katta qiziqish bilan qaragan va tarixiy jarayonlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Tarixchilar bilan bo'lgan ilmiy suhbatlar natijasida Navoiy o'zining "Majolis un-nafois", "Tarixi muluki Ajam", "Zubdat ut-tavorix" kabi asarlarida tarixiy shaxslar, davlat boshqaruvi va ijtimoiy jarayonlarga oid qimmatli fikrlarni bayon etgan.

Bundan tashqari, Hirot xattotlari va san'atkorlari bilan yaqin munosabat ham Navoiyning estetik qarashlari shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. XV asrda kitobat san'ati, miniatyura, xattotlik va bezak san'ati yuqori darajada rivojlangan edi. Navoiy kitob yaratish madaniyatiga alohida e'tibor qaratib, ilm va san'at uyg'unligini qadrlagan. U ijodkorlarni qo'llab-quvvatlab, madaniy taraqqiyot uchun zarur shart-sharoitlarni yaratgan. Bu esa uning nafaqat ijodkor, balki ma'rifatparvar homiy sifatidagi faoliyatini ham namoyon etadi.

Navoiy atrofidagi ilmiy va ijodiy doira uning tafakkurida fanlararo yondashuvning shakllanishiga sabab bo'ldi. U adabiyot, tarix, falsafa, tilshunoslik, musiqa va davlat boshqaruvi kabi turli sohalarini o'zaro bog'liq holda o'rgandi. Shu jihatdan Navoiy ijodi faqat badiiy hodisa emas, balki o'z davrining ilmiy-falsafiy tafakkurini aks ettiruvchi keng qamrovli ma'naviy meros hisoblanadi.

Tasavvuf va ma'naviy qadriyatlarning ta'siri. Tasavvuf Alisher Navoiy dunyoqarashining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Naqshbandiya ta'limotining insonparvarlik, halollik, sabr, tavoze va komillik g'oyalari uning deyarli barcha asarlarida aks etgan.

Navoiy komil insonni jamiyat taraqqiyotining bosh omili sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, davlat taraqqiyoti avvalo ma'naviy barkamol shaxslarni tarbiyalash bilan bog'liqdir.

Davlat boshqaruvi tajribasi va falsafiy qarashlar. Alisher Navoiy nafaqat shoir va mutafakkir, balki yirik davlat arbobi ham bo'lgan. Uning davlat boshqaruvidagi faoliyati nazariy qarashlarini amaliy tajriba bilan boyitdi. Mutafakkir adolatli boshqaruv, xalq manfaatlarini himoya qilish, ilm-fanni qo'llab-quvvatlash va bunyodkorlikni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida baholagan. Shu sababli uning falsafiy qarashlarida adolat va insonparvarlik markaziy o'rin egallaydi.

Navoiy falsafasining zamonaviy ahamiyati. Bugungi globallashtiruv sharoitida Alisher Navoiy ilgari surgan ma'naviy qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Insonparvarlik, bag'rikenglik, ilm-ma'rifatni ulug'lash va adolat tamoyillari zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.



Shu jihatdan Navoiy merosini tarixiy manba sifatida emas, balki zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurning muhim nazariy manbalaridan biri sifatida baholash zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy falsafiy dunyoqarashining shakllanishida Temuriylar davrining ijtimoiy-madaniy muhiti hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi, tasavvufiy qarashlar, davlat boshqaruvi tajribasi hamda yirik mutafakkirlar bilan ilmiy muloqot uning shaxsiyati va falsafiy qarashlarining kamol topishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Shu bois Navoiy merosini o'rganishda tarixiy, falsafiy va madaniy omillarni o'zaro bog'liq holda tahlil qilish muhim ilmiy natijalarni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Navoiy A. Mahbub ul-qulub / A. Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 9-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012. – 786 b.
2. Xondamir G'. Makorim ul-axloq / G'. Xondamir. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – 128 b.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / fors tilidan o'giruvchi Yunusxon Hakimjonov. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
4. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / so'zboshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari Ashraf Ahmad, Haydarbek Bobobekov. – Toshkent: Sharq, 1997. – 384 b.